УДК 82.09

ZAMONAVIY ROMANLARDA RETROSPEKSIYA USULINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI

B.B. TO‘RAYEVA

Maqolada badiiy zamon shakli – retrospeksiya va uning asar kompozitsiyasidagi o‘rni tadqiq etilgan. Badiiy ijodning har qanday namunasi, xususan, nasrda muallifning g‘oyaviy-estetik konsepsiyasidan kelib chiqqan holda badiiy zamonning uzviy tarkibiy qismini tashkil etuvchi turli usullardan keng foydalaniladi. Yozuvchining asar syujetini qahramonlarning o‘tmishiga nazar solish asosida tashkil etish mahorati Chingiz Aytmatov, O‘tkir Hoshimov va Normurod Norqobilov ijodi misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar*: retrospeksiya, prospeksiya, syujet, qahramon, badiiy obraz, personaj, retrospeksiya-xotira, retrospeksiya-rivoyat, retrospeksiya-hikoya, retrospeksiya-epigraf.*

В статье рассматривается метод создания художественного времени –ретроспекция и его роль в композиции произведения. В художественных произведениях широко используются различные методы, основанные на идейно-эстетической концепции автора, составляющие неотъемлемую часть художественного времени. Ретроспекция является эстетически эффективным методом. В статье анализируется мастерство Чингиза Айтматова, Уткира Хашимова, Нормурода Норкобилова в создании сюжета сквозь взгляд главных героев произведения в прошлое.

Ключевые слова: *ретроспекция, проспекция, история, сюжет, герой, художественный образ, личность, ретроспекция-память, ретроспекция-легенда, ретроспекция-история, ретроспекция-эпиграф.*

Kirish

Jahon nasri, xususan, zamonaviy romanchilikda keng tarqalgan retrospektiv usul badiiy fikr-mulohazalarni aks ettirishda ijodkorga birmuncha qulayliklar yaratadi. “Eslash” badiiy vositasi ba’zan muallif, ba’zan esa personajlar hikoyati orqali asosiy syujet hududiga o‘tmish xronoslarini kiritish imkoniyatini beradi. Romanlar syujet hududidagi voqea-hodisalar vaqtning muayyan bo‘lagida ro‘y beradi. Tasvirlashda aniq izchillikka rioya qilinadi, bir voqea ortidan boshqasi sodir bo‘ladi. Ular o‘zaro yig‘ilib ma’lum bir davrning yaxlit epik manzarasini yuzaga keltiradi. To‘g‘ri, bunda retrospektiv usul vositasida mana shu badiiy zamon va makondan “tashqari”ga chiqish, eslash – xotira orqali o‘tmishga qaytish ham mumkin.

Material va usullar

Maqolada tadqiq obyekti sifatida Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Qulayotgan tog‘lar”, “Kassandra tamg‘asi”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” hamda Normurod Norqobilovning “Dasht-u dalalarda”, “Qoraquyun” romanlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning predmeti zamonaviy romanlarda xronotop muammosini ijodiy individuallikda va qiyosiy tipologiyada ilmiy-nazariy yoritishdan iborat.

Maqolada qiyosiy-tipologik, psixologik, sistem-struktur, mifologik tahlil usullari qo‘llanilgan.

Natijalar

Zamonaviy romanlarda retrospeksiya usulining qiyosiy-tipologik tadqiqi jarayonida quyidagi ilmiy-nazariy natijalar olindi:

retrospektsiyaning xotira, rivoyat, hikoya, epigraf kabi shakllari aynan qahramon boshidan kechirganlarini so‘zlab berishi va o‘tmishiga murojaat qilishi, muallifning hikoyachi-personaj nigohi orqali voqelikka razm solishi, voqealarning dramatik holatlarini o‘tmish voqealari bilan asoslanishi natijasida yuzaga keladi;

romanlar xronotopining adabiy-estetik kashf etilishida retrospeksiya, prospeksiya va retardatsiyaning ijodiy-estetik dialektikasida retrospeksiya usulining ustunligi isbotlangan.

Muhokama

“Arastu koinotni eng avvalidan tashkil etuvchi birinchi jismlarning ba’zi sifatlarini bayon etadi. Ushbu jismlar majmuasida boshqa hamma jismlarga aylanma harakat beruvchi jism bo‘lgani uchun zaruriy ravishda ikki makon bo‘lishi kerak, ular: o‘rtadagi, markazdagi makon va markazning atrofini qurshagan makon. Shu bilan birga, mexanik harakat tufayli harakatlanuvchi jismlar bo‘lishi zarur, ularning uchta eng oddiy xili bor: aylanma bo‘ylab harakat, o‘rtaga (markazga) intiluvchi harakat va o‘rtadan (markazdan) chetga tomon harakat. Harakatning bu uch xili yondashishning turli xillari bo‘ladilar, chunki ularning orasida hech qanday bo‘shliq yo‘q” [1. Б. 114]. Arastuning ushbu nazariyasi badiiy asarga tatbiq qilinsa, asar badiiy maydonida syujet chiziqlarining markazga

intilishi, markazdan turli tomonga sochilishi yoki aylanma harakati kuzatiladi.

Badiiy ijodda zamon va makonning o‘lchamlari shartli tarzda o‘zgarib turadi. “Zamon siqilishi va uzayishi, to‘xtashi va ortga qaytishi mumkin. Shu kabi munosabatlar qorishib ketishi, turli usullar vositasida o‘zgarishi mumkin. Shu asosda real shakl va badiiy shakl o‘rtasida shartlilik deb ataluvchi oraliq hosil bo‘ladi” [2. Б. 31]. Badiiy matn har xil qismlarning tartibsiz to‘plami emas, balki qismlari o‘zaro aloqador bog‘langan tartibli tizimdir. Izchillik va aloqadorlik badiiylikning muhim shartlaridan biridir. Bu esa matn – bo‘linmas birlik degani emas. Matnning sistem-struktural tabiati formal va semantik jihatdan qismlarga ajratib tahlil qilish imkoniyatini beradi. Matnning qismlardan tashkil topganligi (bo‘linuvchanligi) va izchilligi uning tabiatiga xosdir. Matnning qismlardan tashkil topganligi va izchilligi matndagi sentrifuga va sentripetal omillarga bog‘liq.

Sentrifuga [3. Б. 440]* – asarda voqea-hodisalarning tarmoqlanishi va matnning qismlarga bo‘linib ketishidir. Syujet chiziqlari sochib yuborilib, markazdan uzoqlashtiriladi.

Sentripetal [4]* – badiiy asarning barcha qismlari leytmotiv atrofida birlashib, turli kichik detallargacha bir mavzuga aloqador bo‘lib qolishidir. Markazga uning atrofidagi voqea-hodisalarni yaqinlashtirish va birgina muammo yechimi ustida xizmat qildirishdir. Matnning ushbu ajratib bo‘lmas sentrifuga va sentripetal omillari retrospeksiya, prospeksiya va retardatsiya kabi usullar orqali to‘ldiriladi. Bular syujetni turlicha yo‘nalishlarda (goh o‘tmishga qaytish, goh kelajakka murojaat) usullarda rivojlantiradi: prospeksiya syujetni oldinga, retrospeksiya esa ortga yo‘naltiradi [5. Б. 53].

Retrospeksiya – “o‘tmishga qaytish” (“o‘tmishning tirilishi”, “o‘tmishni qidirish”) – adabiy atama sifatida ikkita asosiy ma’noda qo‘llaniladi:

1) o‘tmishdan epizod qo‘shish;
2) hikoya qilish usuli [6].

Retrospeksiya usuli shaklan va mazmunan murakkab hamda xilma-xil ijodiy-estetik mundarijani tashkil etadi. Badiiy syujet hodisasi barobarida, eng avvalo, shu syujet qurilishining asosiy prinsiplaridan biri sifatida retrospeksiya o‘tgan va hozirgi zamonlarning jonli aloqasini ko‘rsatish imkonini beruvchi adabiy usuldir [7. Б. 108]. Retrospeksiya – voqealar zamonini rejalashtirishning hamisha ajralib turadigan usuli, kompozitsiyaviy asoslash vositasi bo‘lib, qahramonning oldingi tarixini kengaytirish uchun imkoniyat yaratadi, ahvol-holatini aniqlashtiradi [8. Б. 43].

Har bir adabiy janr o‘z badiiy-poetik xususiyatlaridan, muallifning ijodiy-estetik niyatidan kelib chiqqani holda retrospeksiyaning turli shakllaridan foydalanadi. Ham janr, ham badiiyat – mahorat bobida, ham yaratilish zamon va makonida yaqinlik mavjud bo‘lgan yirik epik asarlarning zohiriy o‘ziga xos muxtasargina ramziy qiyosidan ko‘zlangan ilmiy-nazariy maqsadimiz qiyosiy tipologiya va ijodiy individuallik o‘laroq, Ch.Aytmatov va N.Norqobilovning retrospeksiya usulidan foydalanish mahoratining qay darajada individual teranlik kasb etganini aniqlashdan iborat. N.Norqobilov qahramon xotiralari orqali uning o‘tmishidagi iztirobli va mahzun holatlarga e’tibor qaratsa, Ch.Aytmatov nafaqat personaj o‘tmishi, balki uzoq tarixda sodir bo‘lgan voqeliklarni ham parallel tasvirlaydi. Ch.Aytmatov romanlarida qahramonlar o‘tmishiga sayohat muhim kompozitsion vazifa bajaradi. “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Tog‘lar qulayotgan zamon” romanlarida o‘tmish yuqori mavqega ega bo‘lib, muallif va kitobxon e’tibori shunga yo‘naltiriladi. Ch.Aytmatov zamon modelida o‘tmish hozir va kelajakdan ustun turadi. Yozuvchi qahramonlari o‘tmishini ularning o‘y-xayollari va xotiralari asosida tasvirlaydi. Edigey Bo‘ronning qanday qilib Sario‘zak cho‘liga kelib qolishi, kasallikka chalinish sabablari, Kazangap bilan tanishishi; Avdiy Kallistratovning diniy ta’limotni o‘zlashtirishida oilaviy muhitning, otasi dyakonning ta’siri, diniy seminariyadagi tahsil olish kezlari va quvilish tafsilotlari, Inga Fyodorovna bilan munosabati; Arsen Samanchin bilan qismati samoviy tutashgan, kazovu qadarning amri-irodasi bilan bitta burjning yulduzlari ostida yorug‘ dunyoga kelgan Jaabarsning achchiq xotiralari; Andrey Krilsov, keyinchalik o‘zini samoviy rohib sifatida tanishtirgan Filofey (aslida bular bitta obraz – T.B.)ning bolalar uyiga qor uchqunlab turgan kechada onasining tashlab ketishi, bolalar uyi tarbiyachisi Valeriya Valentinovnaning mehr-shafqati, unga yashash uchun bergan ma’naviy daldasi – hammasi bir-bir qahramonlarning xotira varaqlarida sahifalanadi. Normurod Norqobilov romanlarida qahramon o‘tmishida sodir bo‘lgan, hozirni dramatik taranglikda sabab-oqibat bilan o‘zaro bog‘lagan lahzalar hozirda kechayotgan voqealar oqimi bilan uyg‘unlashib ketadi, ya’ni personaj ruhiyatidagi hozirgi holat bilan bog‘liq o‘tmish voqealari keng va batafsil yoritiladi. Ermanning Itolmas tomonidan bandi qilinishi hamda oltin qazish uchun qul qilib ishlatilishi natijasida uyg‘ongan yuragidagi cheksiz nafrat tufayli g‘ul itini tarbiyalashi; Eshqul polvon xalq koriga yarash maqsadida podani dashtga haydab ketishi; hokimiyat, aslida o‘z nafsi ilinjida Farmonov Eshqul polvonni ta’qib qilishi bilan bog‘liq xotiralar aslida qahramon o‘tmishida yuz bersa-da, uning hozirida doimiy ravishda bo‘y ko‘rsatib turadi. Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida xronotopning retrospeksiya, prospeksiya hamda retardatsiya usullari bir-birini to‘ldiradi va yozuvchilarning ijodiy maqsadiga ko‘ra turli vazifalarni bajaradi. Har ikkala ijodkor romanlarida retrospeksiya xarakterlarni ochib beruvchi mohiyatlar manbai sifatida emas, balki qahramonlarning hozirdagi faol harakatlariga turtki beruvchi manba sifatida qiziqtiradi. Qahramonlarning o‘tmishida yuz

* Sentrifuga (nem. Zentrifuge < lot. centrum – markazdan + fuga – qochish).

*Sentripetal [lot. centripetal. centrum – markazga + peto – yo’naltirilgan].

bergan voqealar keskin va uyg‘unlashmagan turtki bilan hozirdagi voqealarning tabiiy oqimiga va qahramonlar ongiga bostirib kiradi hamda ularni chuqur mushohadaga chorlab, reallikning yuqori bosqichlariga olib chiquvchi xatti-harakatlar qilishga undaydi. Romanlar mavzularining yaqin o‘tmishdan retrospektiv maxsus tanlanganligi, demak, ular epik vaqtining aniqligi, eng muhimi – o‘tgan zamonni muallifning hozirgi zamon illyuziyasida badiiy yaxlit, epik zamonga “aylantirish” san’atida ekanligidir.

Adiblarning badiiy mahorati shundaki, voqealarga roviy yoki personaj nigohi orqali nazar tashlaydi. “Asrga tatigulik kun” romanida voqealar ko‘lamining markaziy nuqtasida Edigey Bo‘ron obrazi turishi barobarida har bir hodisaga uning donishmandlarga xos teran mushohadalari sezilib turadi. “Dasht-u dalalarda” romanida Eshqul polvonning mulohazalari yozuvchining o‘y-fikrlari bilan uyg‘unlashadi, nafaqat inson-inson, balki jamiyat va inson muammolariga ham aynan shu qahramon yechim izlaydi. Chingiz Aytmatov va Normurod Norqobilov romanlarining g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini shakllantirish va ifodalashda shu usulni samarali qo‘llashgan. Personaj hayotida qachonlardir ro‘y bergan voqea asosida asar syujeti qurilar ekan, ularning yuz berish vaqti bilan hikoya qilinish vaqti bir-biriga mos kelmaydi. Syujet chiziqlarining personaj hoziridan uning o‘tmishiga tomon shiddatli rivojlanishi yukutilmagan burilishlarga egaligi ijodkor ongida akslangan voqelikning badiiy modelini yaratishda o‘zgacha uslub sifatida namoyon bo‘ladi.

“Epik asarda rivoyatning obyektiv va subyektiv ko‘rinishlari kuzatiladi. Birinchi holda roviy “xolis kuzatuvchi” mavqeyidan turib olib boriladi, ya’ni roviy voqealarga aralashmaydi, tasvir predmetiga munosabat ochiq ifodalanmaydi; ikkinchisida esa, aksincha, voqelik “ichdan o‘tkazib” beriladi, tasvir predmetiga munosabat ham oshkor ifodalanadi” [9. Б. 252]. Har ikkala adib romanlarida ikkinchi jihat ustuvor bo‘lib, “Asrga tatigulik kun”da Edigey Bo‘ron, Kazangap, “Qiyomat”da Iso Masih, Avdiy, Bo‘ston, “Dasht-u dalalarda” romanida Eshqul polvon, “Qoraquyun”da Oqbo‘ta, Qalaybek obrazlari insonlar dardini o‘z dardi deb bilgan javonmardlar sifatida qalban, ruhan va fikran muallifga hamqadam bo‘lib, *voqelikni “ichdan o‘tkazishadi”.* Adiblar tasvirlanayotgan voqelik ichida, qahramon shaxsida yashar ekan, hech vaqt o‘zligini yo‘qotmaydi. Personaj yuragida o‘z qalbini joylaydi, o‘z g‘oyasini asar to‘qimasiga, undagi qahramonlarning o‘y-xayollari, orzu-intilishlari, quvonch va dardlari, baxt va fojialariga singdirib yuboradi.

Zamonaviy romanlarda retrospeksiyaning *xotira, hikoya, rivoyat, afsona, epigraf* shakllari mavjud:

1. **Retrospeksiya-xotira**. Qahramon o‘tmishida ro‘y bergan, ongiga, shuuriga singib ketgan hodisalarni eslaydi. Retrospeksiya-xotira personaj qalb tug‘yonlarini, ruhiy dunyosini chuqur ochishga xizmat qilish barobarida obraz ruhiy olamidagi evrilish natijasida, ya’ni ikki holatda o‘tmishiga nazar soladi.

1. Azob-uqubatli kunlarini xotirlanishiga sabab bo‘luvchi mahzunlik holati yuz berganda.


2. Yuragi sevinchdan hapqirib, quvonch onlarini xotirlash lahzalarida.

Maqolada tadqiqot obyekti sifatida tanlangan romanlarda birinchi holat ko‘proq uchraydi. Kitobxonlari qalbini dard-u anduhlardan larzaga solgan Ch.Aytmatov qahramonlari achchiq qismat egalaridir, N.Norqobilov qahramonlari tiynatida esa qismatdan, yovuzlikdan o‘ch olish – isyon bor.


“Asrga tatigulik kun” romanida Ona Bayit qabristoniga Kazangap cholni dafn etish uchun borishdagi fursat oralig‘ida Edigey Bo‘ron bir asrga teng voqealarni xotirlaydi: Ukkubola bilan kechirgan baxtli damlari, urushdan kontuziya kasaliga yo‘liqib qaytishi; Kazangap va xotini Bo‘key ularga yordam qo‘lini cho‘zganligi (Edigey va Ukkubolani Sario‘zakka olib kelishi va shubat uning dardiga shifo bo‘ladi deb, Oqbosh va Qoranorni hadya qilishi); Abutolib va Zarifalarning Sario‘zakka ko‘chib kelishlari, Abutolibning Janubiy Bavariyada nemislar qo‘liga asir olinishi, umrining oxiriga qadar asirlik peshonasiga tamg‘a sifatida bosilib, chag‘irko‘z Tansiqboev tomonidan Abutolib Quttiboevning bolalari uchun yozilgan xotiralariga siyosiy ayblov qo‘yilishi; Edigey Zarifaning bolalari: Dovul va Ermaklarga otasi Abutolibning so‘nggi iltimosi – dengiz haqida so‘zlab berishi, Zarifani sevib qolishi, ammo buni sezgan Zarifa bildirmasdan Sario‘zakdan ketib qolishi; Kazangapning o‘g‘li Sobitjon otasiga nomunosib farzand bo‘lishi – hamma-hammasi Edigey Bo‘ron xotiralari asosida asarda obrazli ifodalanadi. *“Ona Bayit sari borishar ekan, Edigey shu asnoda yo‘l-yo‘lakay turli xayollarga g‘arq bo‘ldi. Ufq uzra bosh ko‘tara boshlagan quyosh hayot oqimini o‘lchab, bo‘lib o‘tgan jamiki turmush achchiq-chuchuklarini eslatdi unga”* [10. Б. 80]. “Dasht-u dalalarda” romanida Eshqul polvon xotiralari yozuvchining badiiy-g‘oyaviy maqsadini teranroq ifodalash imkonini bergan, chunki sho‘rolar davri voqealari shu qahramon o‘tmishini tasvirlash orqali ayonlashadi. Asarda garchi bosh qahramon sifatida To‘lanboy obrazi ham gavdalantirilsa-da, roman Eshqul polvonning el chorvasini saqlab qolish maqsadida dashtga haydab ketishi natijasida Farmonov bilan, dashtdagi buloqni asrab qolish uchun Shavkat bilan ijtimoiy ziddiyati, O‘sarqul battol bilan shaxsiy ziddiyati asosida qurilgan. Ch.Aytmatov asar voqealari markaziga Edigey Bo‘ron, N.Norqobilov Eshqul polvon obrazlarini qo‘yadi. Ch.Aytmatov abadiy va o‘tkinchi hodisalar doimo to‘qnashib turadigan bugungi kunda mehnatkash odam adibga shaxsiyati, boy ma’naviy dunyosi, zamonning qay jihatlarini o‘zida mujassamlantirgani bilan ham qiziqarli va qadrli ekanini ta’kidlab, shu boisdan Edigey Bo‘ronni davrimizning charxi olam mehvariga – o‘zini hayajonga solayotgan muammolarning markaziga qo‘yib tasvirlashga intilganligini e’tirof etadi.

Tadqiqotchi S.Bazarov N.Norqobilov asarlari poetikasini tadqiq qilar ekan, adib romanlarida aks etgan inson va jamiyat munosabatlarini quyidagicha izohlaydi: “To‘g‘rirog‘i, muallif epik makon tasviriga ko‘proq urg‘u berar ekan, zamon ziddiyatlarini inson xarakterini shakllantirishga xizmat qildiradi. Epizodik chizgilar, xarakterli badiiy detallar millat turmush tarzini asar ruhiga singdiradi, natijada insoniy munosabatlar milliy an’analarni yorqin ifodalagan tipik xarakterli umumlashmalarni yuzaga chiqaradi [11. Б. 19].

“Asrga tatigulik kun” romanining umum-retrospektiv tarkibi kompozitsiyaviy xilma-xil va murakkab bo‘lib, gorizontal makonda sodir bo‘lgan voqealar tizimida biri uchun ikkinchisi yoki uchinchisi kompozitsiya jihatdan qoliplovchi hamda qoliplanuvchi vazifasini bajaradi. Edigey Bo‘ron va Ukkubola syujet chizig‘i qoliplovchi bo‘lib, barcha syujet chiziqlarini tutashtirib, asar yaxlitligini ta’minlagan. Taniqli tarjimon G‘aybulla Salomov “Qiyomat”da Akbara bilan Toshchaynar romanning deyarli barcha qismlarini bir-biriga asosiy qoliplovchi vosita bo‘lganidek, “Bo‘ronli bekat”da Qoranor shunday vositachilik qilganini ta’kidlaydi [12. Б.159]. Edigey Bo‘ron va Ukkubola syujet chizig‘i roman syujet chiziqlarini o‘zida qamrasa, Qoranor Edigeyning doimiy hamrohi sifatida qoliplovchi vosita sanaladi.



1-rasm. “Asrga tatigulik kun” romanining qoliplovchi va qoliplanuvchi syujet chiziqlari [1].



2-rasm. “Dasht-u dalalarda” romanining qoliplovchi va qoliplanuvchi syujet chiziqlari [13].

“Asrga tatigulik kun”da Edigey Jongeldin, “Qiyomat”da Avdiy, “Kassandra tamg‘asi”da Andrey Krilsov, “Qulayotgan tog‘lar”da Arsen, “Qorquyun”da Erman, “Dasht-u dalalarda” romanida Eshqul polvonning xotiralari aks etgan bo‘lib, ular o‘z o‘tmishlarini turli kayfiyatda xotirlashadi. “Eslash usuli ruhiyat tasvirida asar personajlarining muayyan holatlardagi o‘y-fikrlarini, xatti-harakatini o‘tmish voqealari bilan bog‘liqlikda asoslash vazifasini ham ado etadi. Ayrim hollarda bu usul personajning o‘y-mulohazalari, ong oqimi bilan bog‘liqlikda qo‘llanadi. Bunday hollarda eslash usuli personajning o‘ta murakkab ruhiy holatidan, uning ongi va qalbida kechayotgan achchiq ruhiy iztiroblarni so‘ndirish, barcha qilmishlarida o‘zini to‘la haq ekanligini isbotlash uchun xizmat qiladi” [14. Б. 36]. Asarlarning g‘oyasiga safarbar retrospektiv chekinishlar har biri o‘z holicha, bir nechasi mushtarak mundarijada zamon-makon dialektikasi asosida hikoya qilinayotgan muayyan zamonlarda kechmish voqea-hodisalarning badiiy mantiq zanjiriga qoliplovchi yoki qoliplanuvchi zamon maqomlarida o‘zaro halqalanadi.

Birgina eslashdan iborat ruhiy holatning o‘zi har bir xarakter xatti-harakatidagi yangi qirralarni ochish imkonini bergan. Retrospeksiya – xotiralar – qahramonning o‘tmish hayoti xotirlanishi, esga olinishi asardagi voqealar oqimini to‘ldirishga, zamon-makon (xronotop)ini kengaytirishga yordam bergan.

2. Retrospeksiya-hikoya. Zamonaviy o‘zbek romanchiligida O‘tkir Hoshimovning uslubi hayratlanarli bo‘lib, “Ikki eshik orasi” romanini retrospeksiya-hikoya asosida yaratgan. “Adib asar syujeti va kompozitsiyasini ishlashda mumtoz adabiyotda (masalan, Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida) mavjud bo‘lgan qoliplash san’atidan ijodiy foydalanib, yangilik yaratgan” [15. Б. 104]. Saydulla Mirzayevning fikrlariga tayanib, aytish mumkinki, Muzaffar va Munavvar syujet chizig‘i qoliplovchi vazifasini bajargan.

Romanda voqealar halqali zamon shaklida tasvirlanib, *ibtido-yu intiho nuqtalarining* tutash halqasidan iborat. Qirq yetti bobdan tashqari roman muqaddima yoki eng avvalgi bob – Qurilish-montaj brigadasining boshlig‘i Muzaffar Shomurodov hikoyasi bilan boshlanib, xotima yoki eng oxirgi bob Qurilish-montaj brigadasining boshlig‘i Muzaffar Shomurodov hikoyasi bilan yakun topadi. Muqaddima yoki eng avvalgi bob Toshkentdan Qo‘qonga onasining dafn marosimi uchun yo‘lga chiqib, avtobusga o‘tirgan Muzaffar asar intihosida – xotima yoki eng oxirgi bobda avtobusdan tushishga yuragi betlamaydi: “*...Avtobusdan tushishga oyog‘im tortmas, Toshkentga brigadamga qaytgim, Ikrom akaning “tudavoy-sudavoy” deb shang‘illab gapirishini eshitgim kelardi”* [16. Б. 534] jumlasi bilan nihoyalanadi. Adibning mahorati shundaki, bosh qahramon avtobusga chiqib, manzilga yetgach, undan tushishgacha bo‘lgan muddat oralig‘ida urushgacha, urush davri va urushdan so‘nggi voqealarni sig‘dira olgan. O‘tkir Hoshimov romanda turkum syujetni shakllantiradi, voqea ichida voqea yaratadi. Asar yoshi, dunyoqarashi, jinsi turlicha bo‘lgan to‘qqiz nafar qahramon hikoyasini o‘zida umumlashtirgan, shuncha miqdordagi syujet chiziqlarining tutashuvi va parallelligidan tashkil topgan. Xronotopning ramziy ifodasi ba’zi qahramonlarning portretida, voqealar rivoji mobaynida “umr pog‘onasining turli bosqichlaridan turib, sarguzashtlarini bayon etishi” [17. Б. 66]da namoyon bo‘ladi. Muzaffar Shomurodov hikoyasi o‘n olti o‘rinda berilgan, bosh qahramon romandagi boshqa personajlarning hikoyasini tizimlashtirish vazifasini bajaradi. Muzaffar yoshligidan

qurilish-montaj brigadasining boshlig‘i bo‘lguniga qadar jarayon fasl sarlavhalarida aks etgan: *uch o‘rinda kichkintoy Muzaffar hikoyasi, besh o‘rinda o‘quvchi Muzaffar hikoyasi, sakkiz o‘rinda talaba Muzaffar hikoyasi*.

Syujet chiziqlarini quyidagi to‘qqiz nafar personajning hikoyalari tashkil etadi:

1) o‘n yetti o‘rinda Muzaffar Shomurodov hikoyasi;
2) sakkiz o‘rinda Robiya hikoyasi;
3) olti o‘rinda Qora amma hikoyasi;
4) olti o‘rinda Ra’no hikoyasi;
5) besh o‘rinda Umar zakunchi hikoyasi;
6) uch o‘rinda Farmatsevtika institutining uchinchi bosqich talabasi Munavvar Aliyeva hikoyasi;
7) ikki o‘rinda Shomurod hikoyasi;
8) bir o‘rinda noma’lum askar Kimsan Husanov hikoyasi,
9) bir o‘rinda shahar ijroqo‘mining raisi Olimjon Komilov hikoyasi.

O‘n ikkinchi bob “Mehr bilan qahr – orasi bir qadam” tarzida nomlanib, oddiy askar Kimsan Husanovning Robiyaga yozmoqchi bo‘lgan, ammo yoza olmagan xati keltirilgan. Qolgan qirq olti bob muayyan qahramonning hikoyasi tarzida nomlangan.

3. Retrospeksiya-rivoyat. Yozuvchilar asarlarida shu kunning dolzarb hodisalari xalq og‘zaki ijodi orqali yetib kelgan afsonalar, rivoyatlar bilan singishib ajib bir yaxlitlik kasb etadi. *“Manqurtlar haqidagi rivoyat “Asrga tatigulik kun” romanining zamonaviy ahamiyatini belgilovchi eng muhim qism va romanning butkul hujayralariga singib ketgan yetakchi g‘oyalardan birining manbaidir”* [18]. Boshiga tuya terisini qoplash natijasida xotirasidan mahrum qilingan, manqurtga aylantirilgan o‘g‘li Jo‘lomonni Nayman ona jungjanglardan xalos qilish uchun Oqmoyasi bilan har qancha harakat qilmasin, kimsasiz sahroda yolg‘iz onaning qo‘lidan hech narsa kelmaydi. Manqurt o‘g‘il kamondan o‘q uzganda onani o‘lim zarbasi mahv etadi. Oqmoyadan qulayotganda boshidan sirg‘alib tushgan ro‘moli qushga aylanib, “Kimning farzandisan eslab ko‘r! Oting nima? Otangning oti Do‘nanboy! Do‘nanboy! Do‘nanboy! deya bugunga qadar uchragan yo‘lovchiga shunday sado chiqarar ekan” [1. Б. 124]. Asarda yana bir retrospeksiya – rivoyat Raymali og‘a va qo‘shiqchi qiz Begimoy muhabbati Edigey Bo‘ronning Zarifani sevib qolishiga mushtarak holda keltiriladi. Keksa Raymali og‘a o‘n to‘qqiz yoshli qizga ko‘ngil qo‘yadi: *“Kelsang chanqab yiroqdan, suv ichsam deb buloqdan, sarin esgan yel kabi yo‘ling to‘sib chiqsam men, Begimoy. Taqdirimga yozilgani – tugab turgan bo‘lsam ham, lekin hali o‘limdan yiroqman, Begimoy. Ayrilganim o‘zingdan, ayrilganim ko‘zimdan, shuning uchun Begimoy, asrlar o‘tar-ketar, ammo seni deb qarilikka bo‘y bermay, o‘lim sari yo‘l tutmay mangu yashab qolarman...”* [1. Б. 232–233]. Bir to‘yda eng yaxshi o‘tov – bo‘z uyda taniqli odamlar qatori Raymali og‘a oqsoqollar bilan suhbatlashib turganida o‘tov eshigidagi kashtali pardani ochib, tabiatning mohir qo‘llari tomonidan yaratilgan, sho‘x, mag‘rur, sarvqomat qiz bo‘sag‘ada paydo bo‘ladi va Raymali og‘aga do‘mbirasini chertgancha muborakbod qo‘shig‘ini baralla kuylaydi: *Chanqog‘in qondirmoq-chun olisdan yo‘l tortib, quduq izlab kelayotgan sarbon singari huzuringga shoshildim men, dovruqli Raymali og‘a. ...qatralardan bol to‘plagan asalari singari, bu uchrashuvga umr bo‘yi intildim. G‘uncha yanglig‘ shu kunga intiq edim, ming shukrki, niyatimga erishdim!...”* [1. Б. 230]. Begimoy bilan Sarbozorda jirlovga niyat qilishganida ukasi Abdilxon va Baraqbay urug‘ining oqsoqollari Raymali og‘a keksayganda yosh qizga ko‘ngil qo‘yganiga or-nomus qilishib, uni qayinga chirmab bog‘lab, tulpori Sarallani bo‘g‘izlashadi.

Ch.Aytmatov Raymali og‘a va Begimoy haqidagi rivoyatni asarda keltirish orqali Edigey Bo‘ronning muhabbatini yana-da kuchliroq, ta’sirliroq, go‘zalroq tarzda ifodalashga muvaffaq bo‘lgan.

“Asrga tatigulik kun” romanida “Nayman ona” Edigey xotiralari orqali, “Raymali og‘a va Begimoy” Oqmo‘ynoq bekatining boshlig‘i Erlepes ohanglarida, “Qiyomat”da Iso Masih bilan bog‘liq diniy rivoyat Grishan to‘dasi tomonidan kaltaklangan va poyezddan uloqtirilgan Avdiyning gallyutsinatsiya natijasida surgan tizginsiz xayollari orqali ifodalanadi. Avdiy kuchli og‘riq zarbidan dam hushiga kelar, dam Iso Masih zamoni va makonida xayolan kezardi: “*Fikr tug‘ilarkan, ruhni o‘z-o‘zidan hech qanday to‘siq bilmay vaqt va makon cheksizliklari sari ozod ergashtirib ketardi. Avdiy dam Iso va Pontiy Pilat haqida o‘ylar, xayolan o‘sha zamonlarda sayr qilar, boshi tepasidan o‘tib borayotgan poyezdlarning gulduros shovqin-suronlari o‘zini qadim Yahudoda G‘ulqof tog‘idagi sershikva olomon ichra tasavvur qilishiga xalal bermas va o‘sha yerda bo‘layotgan barcha voqealarni o‘z ko‘zlari bila ko‘rayotganday bo‘lardi*” [1. Б. 429]. Iso Masih va Pontiy Pilat syujet chizig‘i Avdiy Kallistratovning nashavandlar rahnamosi Grishan va sayg‘oq ovlovchilar to‘dasi boshlig‘i Ober Kandalov tomonidan sud qilinish epizodik tasviri bilan parallellik hosil qilgan.

“Qoraquyun” romanidagi Donishota haqidagi rivoyatda insonlarning qilgan amallarini sinchkovlik bilan kuzatib turadigan, yaxshilikka xayrixoh, yovuzlikka qarshi bo‘lgan donishmand ota timsoli gavdalantiriladi. “Donishota qiyofasi quyosh harakatiga qarab, kunda bir necha bor turlanib va tuslanib turishini Qalaybek ko‘p bora kuzatgan esa-da, rivoyat bois, undan juda hayiqadi” [19. Б. 98]. Rivoyatda o‘z farzandlaridan qattiq ranjigani bois qismatning qudrati bilan toshga birikib ketgan Donishota avlodlarining tabiatga, jonzotlarga yetkazayotgan sitamlaridan og‘rinadi, faqat qalbi pok, samimiy Qalaybekkagina dardini so‘ylaydi. Rivoyatdagi Donishotaga xos salobat, donishmandlik Oqbo‘ta oqsoqol obrazida ham namoyon bo‘lib, har ikki qahramon xususiyatlari Qalaybekning Ermanga aytgan mulohazalarida oydinlashadi.

Retrospeksiya-rivoyat ifodaning yorqin, tasvirning jonli bo‘lishiga xizmat qilib, estetik ta’sir kuchini

oshirgan. Syujet chiziqlarining yondosh qo‘llangani yuksak badiiy samara bergan.

Retrospeksiya-afsona. “Qulayotgan tog‘lar”dagi “Mangu qayliq” afsonasi Arsen va Oydana, Arsen va Eles munosabatlarini yana-da yorqinroq anglash imkonini beradi. Baxt-u saodatni ko‘rolmaydigan hasadchilar, “rashk-u hasad otashida o‘rtanib, qahr-g‘azabining zo‘ridan ko‘m-ko‘k ko‘karib, hammaning orqasidan biqinib-pusgan yovuz qismat” [20. Б. 67] ovchi yigit va go‘zal qizni bir umrga ayirganidek, Ertosh qurchal, Toshtanafg‘on Arsenni baxtdan mosuvo qilishadi. Mazkur afsona asar syujet chiziqlarini tutashtirib, asar yaxlitligini ta’minlagan. Oshig‘idan ayrilgan, tog‘-u toshlar ichra suyganini izlab darbadar kezgan go‘zal qiz obrazini sahnada gavdalantirmoqchi bo‘lgan opera teatrining yetakchi solisti Oydana Ertosh biznesining mahkumasiga aylanadi, Elesgina mangu qayliqqa sodiq qoladi, chunki ularning achchiq qismatlari bir-biriga o‘xshaydi.

4. Retrospeksiya-epigraf. “Kassandra tamg‘asi” romanida yozuvchi ikkita epigraf qo‘llaydi. Birinchisi retrospektiv, ikkinchisi esa prospektiv xususiyatga ega: “Qadimgi yunon mifologiyasidan olingan “Kassandra Appolon muhabbatini rad qilgach, Appolon Kassandrani shunday duoyi bad qildiki, uning bashoratlariga hech kim ishonmay qo‘ydi” epigrafida ramziy ma’no yashirin. “Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari” kitobidagi “Parisning Troyaga qaytishi”, “Paris Yelenani o‘g‘irlaydi”, “Troyaning qulashi” afsonalarida Shoh Priamning afsungar qizi Kassandraning so‘zlariga hech kim quloq solmasdi, chunki xudo Appolon uni shunday alamli qismatga mahkum etgandi: uning bashorati to‘g‘ri chiqsa-da, hech kim ishonmasdi ta’kidi qayta-qayta keltirilgan [21].

Asarda rohib Filofeyning tug‘ilishni xohlamagan homilalar o‘z istaklarini onalarining peshonasidagi qora dog‘ orqali oshkor qilishlari haqidagi kashfiyotiga hech kim ishonmaydi. Bunga xotini Yevgeniyaning Andrey Krilsov tufayli dunyoga kelolmagan norasidalarining qarg‘ishi yoki Ollohning irodasiga qarshi chiqib, ikszurriyotlarni yaratish – shaytoni la’inning vasvasasi ekanligini ta’kidlagan Runa Lopatinaning nafrati sabab bo‘ladimi, xullas, bosh qahramonning kashfiyoti butun insoniyat tomonidan rad etiladi. “*Fan har qanday yuksaklikka ko‘tarilmasin, uning yutuqlari o‘tkinchi, fan cheksiz taraqqiy qilishi mumkin, lekin fan taraqqiyoti vijdon oldida hech nima emas*” [20. Б. 342], degan xulosaga kelgan qahramonning iqrori keltiriladi: “*Bularning hammasi oxir-oqibatda mening taqdirimni belgiladiki, meni kosmosga, orbital stansiyaga olib ketdi. ...Endi menga Yerda joy yo‘q ekanligiga aqlim yetdi*” [20. Б. 289]. Romanda kassandra-embrioni birikmasi qo‘llaniladi. Boshqalarga tashvish keltirib yashagandan ko‘ra tug‘ilmaslikni afzal ko‘rgan, dunyoga kelishidan norizo kassandra-embrionlarining so‘zini hech qaysi ona tinglagisi kelmaydi. Asar badiiy g‘oyasida antinomiya kuzatiladi. Ona vujudida rivojlanayotgan kelajak mevasi o‘zini yo‘qotishlarini talab qiladi. Xullas, yozuvchi yovuzlik avj olib, gunohi kabiralar ko‘payishi natijasida shunday farzandlar dunyoga kelishi mumkinligini, farzand ota-onaning amallariga qarab, yo Yaratganning inoyati yoki sinovi tariqasida berilajagini ta’kidlayapti. Voqealar rivoji mobaynida adibning falsafiy mushohadalari asosida epigrafning mohiyati to‘la ochiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish joizki, ayrizamon va ayrimakonda ro‘y bergan afsona va rivoyatlarning voqealarini qahramonning hozirgi zamoni bilan uzviylashtirishda Ch.Aytmatov retrospeksiya usulidan unumli foydalangan, yozuvchining mahorati parallel xronotopni yuzaga keltiradi. N.Norqobilov asarlarida retrospeksiya usulini qo‘llashda o‘ziga xoslik kuzatiladi, ya’ni o‘tmish hozir bilan birlashib ketadi. Qoyaga singib ketgan Donishotaning ruhi Qalaybek bilan faqat hayvonlar yashagan, keyinchalik insonlar tomonidan ularga qirg‘in qilingan zamonlar va insoniyat tabiatning farzandi ekanini butkul unutgan hozirgi davr to‘g‘risidagi falsafiy suhbatlarida, hamxonasi Sa’dulla bilan Eshqul polvon sihatgohda davolanish kezlarida nuqul uning otasi Farmonov bilan bo‘lgan mojarolar xususidagi xotiralarida o‘tmish va hozir bir nuqtada kesishadi.

Muallif va hikoyachi “o‘rtasida” turgan, voqealar mehvariga qo‘yilgan “xolis” – hikoyachining xotiralari (Edigey Bo‘ron, Avdiy, Arsen, Andrey Krilsov) asosida asar yaratish buyuk adib Chingiz Aytmatovning chin ma’nodagi kashfiyoti deyish mumkin. O‘.Hoshimov retrospeksiya usulidan mohirona foydalanib, go‘zal badiiyat namunasini yaratdi. N.Norqobilovning “xolis”-hikoyachilari – Eshqul polvon va Erman tegrasida butun voqelik sodir bo‘ladi, asarning syujet chiziqlarini aynan shu obrazlar uzviylashtiradi. Retrospeksiyaning *xotira, rivoyat, hikoya, epigraf* kabi shakllari aynan qahramon boshidan kechirganlarini so‘zlab berishi va o‘tmishiga murojaat qilishi, muallifning hikoyachi-personaj nigohi orqali voqelikka razm solishi, voqealarning dramatik holatlarini asoslanishi natijasida yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. *Форобий А.Н*. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.

2. *Каган М.С*. Пространство и время в искусстве как проблема эстетической науки. // Ритм, пространство и время в литературе и искусстве. – Ленинград: Наука, 1974. – 301 с.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Беш жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 606 б.

4. *Дудьев В.П.* Психомоторика: словарь-справочник. – Москва: Владос, 2008. [Электронный ресурс]. URL: https://psychomotor.academic.ru/11470/ (Дата обращения: 7.01.2022)

5. *Selmistraitis* L. Prospection and retrospection in “The Great Gatsby” by F.S. Fitzgerald // Zmogus ir zodis, 2002. – № 3. – Pp. 51–58.

6. *Меркулова М.Г.* Ретроспекция: шекспировская модель ретроспекции в «Гамлете» [Электронный ресурс]. URL: // https://world-shake.ru/ru/Encyclopaedia/3770.html (Дата обращения: 24.01.2022)

7. *Шодиев Н.* Горизонты эпоса. Художественно-эстетическое богатство эпической прозы литератур Средней Азии и Казахстана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1986. – 176 с.

8. Ржевская Н.Ф. Изучения проблемы художественного времени в зарубежном литературоведении // Вестник Московского университета. Серия X. Филология, 1969. – № 5. – С. 43–48.

9. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М.* Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 411 б.

10. *Айтматов Ч.* Асрга татигулик кун. Қиёмат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 560 б.

11. *Базаров С.* Нормурод Норқобилов асарларининг поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... автореф. – Жиззах, 2021. – 53 б.

12. *Саломов Ғ.* Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1991. – 271 б.

13. *Норқобилов Н.* Дашту далаларда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 224 б.

14. *Исаева Ш.* Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари: Филол.фан. ном... дисс. – Тошкент, 2001. – 129 б.

15. *Мирзаев С.* Сўз санъаткори. Эл севган адиб (Ўткир Ҳошимов замондошлар наздида). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011. – 230 б.

16. *Ҳошимов Ў.* Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 752 б.

17. *Норматов У*. Насрдаги шоир ёхуд руҳият манзиллари. Эл севган адиб (Ўткир Ҳошимов замондошлар наздида). – Тошкент: Mumtoz so ‘z, 2011. – 230 б.

18. *Alimbekova V*. Ta’lim bosqichlarida Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini o‘rganish. [Интернет манба]. URL: http://library.navoiy-uni.uz/files/alimbekova%20 (Мурожаат этилган сана: 4.02.2022)

19. *Норқобилов Н*. Қорақуюн. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 222 б.

20*. Айтматов Ч*. Қулаётган тоғлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 432 б.

21. *Кун Н.А.* Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 2005. – 250 б.

COMPARATIVE AND TYPOLOGICAL STUDY OF RETRO SPECTIVE METHOD IN MODERN NOVEL

B.B.Turaeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 3 (63). 70-78.

[1]Uzbekistan State World Language University, Tashkent, 100173, str., Kichik halka yuli, 21-a.(Uzbekistan). E-mail: usuw_ info@edu.uz

Keywords: retrospection, prospection, story, plot, hero, artistic image, personality, retrospection-memory, retrospection-legend, retrospection-story, retrospection-epigraph.

Topicality and necessity of the topic. The article studies the role of the literary time and its methods in the composition of the work. Various forms constituting an integral part of the literary time, based on the author’s ideological-aesthetic conception, are widely used in the patterns of the literery time. In this regard, retrospection is considered as one of the effective creative-aesthetic methods. The following article analyzes the proficiency of Chingiz Aytmatov, Utkir Khoshimov, Normurod Norqobilov in the creation of a story retrospecting the past of its main heroes.

The aim of the research work. The purpose of the study is to generalize the research-analytical and theoretical examples of retrospection on the examples of Chingiz Aitmatov, Utkir Khoshimov and Normurod Norqobilov’s novels.

The object of the research work. The objects of the research are the novels of the famous Kyrgyz writer Chingiz Aitmatov “The Day Lasts More than a Hundred Years”, “Doomsday”, “When the Mountains Fall (Eternal Fiancée)”, uzbek writers – Utkir Khoshimov’s novel “Between Two Doors”, Normurod Norqobilov’s novels “Black Creature”, “In the Steppe Fields”.

Methods of the research. The Methods of comparative-typological, biographic, psychological analysis have been used.

Results and considerations. World literature, especially the retrospective method common in modern novels, provides some convenience to the creator in the expression of artistic ideas. The Art of Remembrance tool sometimes allows the author to enter the chronology of the past into the main plot area through the story of the characters. The events in the plot of the novel take place at a certain point in time. There is a clear sequence in the description, one event after another. They come together to form a coherent epic landscape of a particular period. It is true that in this retrospective method it is possible to go “beyond” this

artistic time and space, to return to the past through memory.

Conclusion. Hence, Chingiz Aitmatov effectively used the method of retrospection in combining the events of ancient myths and legends with the contemporary life of the hero, and the skill of the writer creates a parallel chronotope. In Norkobilov's works, the use of retrospective is unique, that is, the past merges with the present. In his philosophical conversations with Kalaybek, the spirit of Donishota, who was immersed in the rock, lived only in animals, and later forgot that humanity was a child of nature. In their memories of the conflicts with Farmonov, the past and the present intersect at one point.

Forms of retrospection, such as memory, narration, story and epigraph, are the result of the protagonist's narration and reference to the past, the author's view on reality through the narrator-character's eye and the substantiation of dramatic events.

References:

1. Forobiy, A.N. (2016). *Fozil odamlar shahri* [A city of noble people]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

2. Kagan, M.S. (1974). *Prostranstvo i vremya v iskusstve kak problema esteticheskoj nauki* [Space and time in art as a problem of aesthetic science]. In: Ritm, prostranstvo i vremya v literature i iskusstve [Rhythm, space and time in literature and art]. Leningrad: Nauka.

3. Madvaliev, A. (ed.) (2006) O*'zbek tilining izohli lug'ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 12 volumes. 4-volumes. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

4. Dudev, V.P. (2008). *Psihomotorika: clovar'-spravochnik.* [Psychomotor: a reference dictionary]. Moscow: Vlados. [Online]. URL: https://psychomotor.academic.ru/11470/ (Date of access: 7.01.2022)

5. Selmistraitis, L. (2002). Prospection and retrospection in "The Great Gatsby" by F.S. Fitzgerald. *Zmogus ir zodis.* No 3. Pp. 51-58.

6. Merkulova, M.G. Retrospekciya: shekspirovskaya model' retrospekcii v «Gamlete» [Retrospection: Shakespeare's Model of Retrospection in Hamlet]. [Online]. URL: https://world-shake.ru/ru/Encyclopaedia/3770.html (Date of access: 24.01.2022)

7. Shodiev, N. (1986). *Gorizonty eposa. Hudozhestvenno-esteticheskoe bogatstvo epicheskoj prozy literatur Srednej Azii i Kazahstana.* [Epic horizons. The Artistic and Aesthetic Richness of the Epic Prose of the Literature of Central Asia and Kazakhstan]. Tashkent: Izdatel'stvo literatury i iskusstva.

8. Rzhevskaya, N.F.(1969) Izucheniya problemy hudozhestvennogo vremeni v zarubezhnom literaturovedenii [Studying the problem of artistic time in foreign literary criticism]. *Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 10. Filologiya.* No 5. Pp. 43-48.

9. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013) *Adabiyotshunoslik lug'ati* [Dictionary of Literary Studies]. Tashkent: Akademnashr.

10. Aytmatov, Ch. (1989). *Asrga tatigulik kun. Qiyomat* [The Day Lasts More than a Hundred Years. Doomsday]. Tashkent, Adabiyot va san'at nashriyoti.

11. Bazarov, S. (2021). Normurod Norqobilov asarlarining poetikasi: [Poetics of Normurad Norkobilov's works]. Abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philology sciences. Jizzakh.

12. Salomov, G'. (1991) *Men suv ichgan daryolar* [The rivers I drank water from]. Tashkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti

13. Norqobilov, N. (2009). *Dashtu dalalarda* [In the steppe fields]. Tashkent: O'zbekiston.

14. Isaeva, Sh. (2001) O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari [Methods of depicting the psyche of the character in Uzbek historical novels]. Dissertation for getting the degree of Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

15. Mirzaev, S. (2011). *So'z san'atkori. El sevgan adib* (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) [Word artist. Favorite writer (Utkir Hoshimov in the eyes of contemporaries]. Tashkent: Mumtoz so'z.

16. Hoshimov, O'. (2016). *Ikki eshik orasi* [Between two doors]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

17. Normatov, U. (2011). *Nasrdagi shoir yoxud ruhiyat manzillari. El sevgan adib* (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) [The poet in prose or mental addresses. Favorite writer (Utkir Hoshimov in the eyes of contemporaries]. Tashkent: Mumtoz so'z.

18. Alimbekova, V. (2018) Ta'lim bosqichlarida Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini o'rganish [Study the life and work of Chingiz Aitmatov in the educational stages]. [Online]. URL: http://library.navoiy-uni.uz/files/alimbekova%20 (Date of access: 4.02.2022)

19. Norqobilov, N. (2016). *Qoraquyun* [Black creature]. Tashkent: O'zbekiston.

20.Aytmatov, Ch. (2011). *Qulayotgan tog'lar (Mangu qayliq). Qiyomat*. [When the Mountains Fall. Eternal Fiancée. Doomsday]. Tashkent, O'zbekiston NMIU.

21. Kun, N.A. (2005). *Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari* [Ancient Greek myths and legends]. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

Muallif haqida ma'lumot:

TO'RAYEVA Bahor Bahriddinovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasi dotsenti. E-mail: turayeva.bahor@gmail.com